

III-guruh iste'molchilariga ichimlik va oqova
suyi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
SHARTNOMA

20 22 y. " 25 ol

112/22-son

G'azalkent shahri

Ushbu shartnomani "Ching'an-Charbog suv ta'minoti" MCHJ, keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi" deb yuritiluvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi direktor Mirdjalilov Susrob Albertovich

(F.I.O.)

shaxsida bir tomondan, hamda keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi "DAVLAT TIRORAT KALQ BANKI BOSH AMALIYOTLAR BOSHQARMASI" USCO shaxsida ikki olib boruvchi direktor Botagazovchi Seluyev J X

ikkinchi tomondan quyidagilar vaqida tashlar

(F.I.O.)

I. Shartnoma predmeti

1.1. 20__ yil uchun suv yetkazish hajmi ushbu shartnomaga muvofiq III guruh iste'molchisi (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) uchun suv yetkazish berish naxsi bo'yicha _____ m³

1 m³ ichimlik suv uchun _____ 2000 _____ so'm (+OJ/S 15%) = 50 _____ so'm (maxsus ustama haqini,

1 m³ oqova suv uchun _____ 2300 _____ so'm (+OJ/S 15%) = 50 _____ so'm (maxsus ustama haqini tashkil qilmoqda.

O'racha sifatkali ichimlik suv iste'moli limiti _____ m³

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati _____

so'mni tashkil qildi (summa yozuv bilan)

Iste'molchiga yetkazilgan suv va qabul qilingan oqova suvlar uchun hisob-kitoblar Iste'molchi bilan avans to'lovlari tartibida, belgilangan muddatda to'liq hisob-kitob qilish sharti bilan yoki Ta'minotchi taqdim etadigan scheck-fakturalar bo'yicha amalga oshiriladi.

1.2. Ta'minotchi Iste'molchini sifatli (O'zDSt 950-2011) davlat standartiga muvofiq) ichimlik suvi bilan ta'minlash va Iste'molchidan oqova suylarini qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldindan to'lovi mavjud bo'lmasa, har oyning 10 sanasigacha 70 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvi chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalariga" (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi) rioya etishi, shuningdek, Iste'molchi, Ta'minotchi tomondan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilishi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomondan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqini 1m³ ichimlik suv uchun _____ so'm, 1m³ oqova suv xizmati uchun _____ so'm to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

II. Umumiy qoidalar

2.1. Iste'molchi Ta'minotchi ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiga ruxsati berish haqqiga ega.

2.2. Iste'molchi bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar Ta'minotchi tomondan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar Iste'molchi va unga ulangan subiste'molchi turli guruh iste'molchilariga mansub bo'lsa, Ta'minotchi bilan shartnomani Iste'molchi ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish asbobini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

Iste'molchi (subiste'molchi)ga berilgan ichimlik suv hajmi uchun to'lovlar Ta'minotchiga, ularning suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlari bo'yicha va ular mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida to'lanadi.

Ta'minotchi bilan shartnoma tuzgan iste'molchi o'z mansub gurubdagi sobiq iste'molchilarga ulangan bo'lsa, sobiq iste'molchilarga yetkazib berilgan suv va chiqarilgan oqova suv xizmatlari uchun to'lovlar mosiy iste'molchi bilan, u mansub bo'lgan guruh uchun belgilangan tariflar asosida amalga oshiriladi.

O'z navbatida, iste'molchi, o'z ishlagan suv uchun Ta'minotchiga amaldagi tariflar asosida to'lovlarni amalga oshirishda sobiq iste'molchilarga yetkazib berilgan suv hajmlarini ham hisobga olgan holda hisob-kitob qiladi.

2.4. Ichimlik suvdan tay-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanishiga quyidagi istisno holatlarda:

a) irrigatsiya suvi bo'lmaganda,

b) ta'minotchi tashkiloti qavatli majmua bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat uzun vaqtda (suat 00-00 dan suat 05-00 gacha) yo'l qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan iste'molchi xo'jalik-iste'mol, me'yoriy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xizmatida texnologik va ishlab chiqarish jihatlaridan foydalanadi.

2.6. Suvni hisobga olish asbobi O'zbekiston texnik jihatidan tartibga solish qonunligi tomonidan tekshirilgan va tanqislangan bo'lishi va suv o'chirish tarmog'ida suv ta'minotchi tashkilot tomonidan plomba o'rnatilishi shart. Shuningdek, ichimlik va oqova suvini hisobga olish asbobini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi qonunchilikda o'rnatilgan tartib va qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

2.7. Iste'molchiga o'rnatilishi ko'rib bo'lgan suv o'chirish asbobining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, obyektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda iste'molchi bilan kelishiladi.

Iste'molchida suvni hisobga olish asbobining ishlashi nazorat qilinganda, o'lchovlarning texnik talabnomasida yo'l qo'yiladigan minimal chegaradan kam miqdorda suv iste'mol qilgan taqdirda Ta'minotchi suv o'chirish uzulim amalda sarflanayotgan suv hajmiga mos, kichikroq diametrdagi asbobja (berilgan kundan keyingi 10 kalendar kun ichida) qayta jilvirlashga ko'rsatma beradi. Iste'molchi ko'rsatma bajarilmagan taqdirda suvdan foydalanish va oqova suvlarni chiqarish uchun to'lovlar Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash asboblarni ishg'a tushirish, almashtirish, yangi sobiq iste'molchilarning ulanishi iste'molchi tomonidan faqat Ta'minotchi tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va ko'rsatma asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular iste'molchining so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. Ta'minotchidan olingan texnik shartlar iste'molchi buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yoriy qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishg'a tushirilishi Ta'minotchi tomonidan, iste'molchi va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgarigan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular ko'rsatilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

2.11. Limdan ortiqcha suv iste'mol qilgan holatlarda, Ta'minotchi tomonidan belgilangan tariflarga nisbatan 10,0 orttiriluvchi koeffitsiyentni qo'llash yo'li bilan haq undiriladi.

2.12. Quyidagilar Ta'minotchi bilan iste'molchi o'rtasidagi, kommunal suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish elementlari (ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari, qurilmalariga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi):

a) suv iste'moli uchun — kommunal tarmoqqa ulanishni uzib qo'yuvchi kiritish qulfi. Kiritish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, iste'molchining ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova suvlarni chiqarish (kanalizatsiya) uchun — iste'molchi kanalizatsiya tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral kanalizatsiya tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi kanalizatsiya qudug'i (kamerasi) magistral kanalizatsiya tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu qudug Ta'minotchi kommunal kanalizatsiya tarmog'ining bir qismi hisoblanarib, unga tutashiruvchi foydalanish chizig'i esa iste'molchining mablag'i va vositalari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Tarablarning huquq va majburiyatlari

3.1. Iste'molchining huquqlari:

a) Ta'minotchidan, ushbu shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz ravishda yoki iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida amalga oshirilishini, o'z mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat (O'zDSt 950:2011 davlat standartiga muvofiq) va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilishi;

b) Ta'minotchidan suvni hisobga olish asboblari o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish;

v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarilmaganligi uchun Ta'minotchidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

g) Ta'minotchini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'lay amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarrlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

e) Ta'minotchidan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar turi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatida ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynada Ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

j) Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan tashdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifati ichimlik suv bilan ta'minlanmaganlik (sifatli ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur

a) shartnoma shartlarini bajarish;

b) o'zlarining hududida va taarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalarining zarur darajada qo'rqlanishini ta'minlash, ularning buzilishi, suv bosishi va muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, qadug'larning qopqog'ini muz va qordan tozalash, Ta'minotchi tomonidan o'rnatilgan plombalarning saqlanishini nazorat qilish, sezintiruvchi suv oqimlarining qadug'lar yonidan oqib yuborilishini ta'minlash, yong'in gidrantlariga karab borish yo'laklarni tashlab qilmash, yong'in gidrantlari ko'rsatkichlarining ishga yaroqliligini kuzatib borish va mavjud bo'lgan yong'in gidrantlarini va yong'in kranlarini plombalash uchun taqdim qilish;

v) uali predmet va materiallarning uyum bo'lib saqlanishiga, shuningdek o'z hududida yoki taarrufida bo'lgan ichimlik suv, kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalari ustida hamda ichimlik suv va kanalizatsiya tashqi joylashuvda bo'lgan (ko'chada va kvartal ichida) yerlarda biron-bir ishchilarni qurishga yo'l qo'ymaslik. Amaldagi tarmoqlarda o'rtoboshimchalik bilan qurilgan ishchiliklarda avariya sodir bo'lgan taqdirda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik qoidani buzganing rammasiga yuklanadi;

g) transit kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, ishchilik va qurilmalardagi o'zlar aniqlashgan nosozliklar yoki shikastlanishlar haqida Ta'minotchiga xabar berish;

d) suvni hisobga olish asboblariida yashqol ko'rinib turgan nosozliklar aniqlanganda (shu jumladan, tang'ani butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlangan) to'g'risidagi holat bo'yicha (ham) Ta'minotchiga uning elektron pochta orqali yoki uning yagona "Call Markazi (1255)" raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda xabar berish;

e) shartnoma doirasidagi majburiyatlarini bajarish, joriy o'yning 23-25-sanasida suvni hisobga olish asboblari ko'rsatkichlarini to'g'ri va o'z vaqtida qayd qilib borish, joriy o'yning so'nggi sanasigacha Ta'minotchiga ko'rsatkich ma'lumotlarni Ta'minotchining elektron manzili yoki telefon raqami orqali yubish Ta'minotchi joylashgan manzilga borgan holda taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish;

yo) suv sarfi va oqova suvlar oqirilishining shartnomada belgilangan hajmlardan oshirib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) shahar istehsolchidagi suv sarfini nazorat qilish va barcha turdagi suvni yo'qotishlar oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;

z) o'ziga qarashli va u xizmat ko'rsatishi lozim bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, ishchilik va qurilmalardan texnik jihatdan samarali foydalanishni ta'minlash;

l) ishlab chiqarish oqova suvlaridagi ifloslanish konsentratsiyasini normativdagi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tashdiqlangan normativlarga muvofiq) me'yorlargaacha yetkazgan holda oldindan tozalanishini ta'minlash;

y) kanalizatsiya tarmog'iga oqiriladigan oqova suvlar sifatini bo'yicha monitoring o'rnatish;

k) o'z hududida joylashgan suv o'kchasi usuli, kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida olib boriladigan barcha turdagi ishlarni bajarishga bepoya shaxslarni kiritmaslik;

l) Ta'minotchi vakilining ixtirokorlik qadug'lar (kameralar) qopqog'ini ochishga ruxsat bermaslik;

m) kommunal drossaj tizimi mavjud bo'lgan holatlarda iste'molchi hududida joylashgan kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga yong'in va erigan qor suvlarining oqirilishiga yo'l qo'ymaslik (iste'molchi

bog'liq bo'lmagan forsi-majori holatlarda oqirilibsi bundan mustasno). Mazkur huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda Ta'minotchi vakili, belgilangan tartibda, Iste'molchiga nisbatan javobgarlik choralarini belgilash uchun asos bo'ladigan dalolatnomani tayyorlaydi.

n) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, imbiyotlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat gijohnomasiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar to'g'risida ichki ishlar organlariga xabar berish.

3.3. Ta'minotchining huquqlari:

a) Ta'minotchi, Iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a.a) Iste'molchiga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilma va imbiyotlarning texnik holati qoniqsiz bo'lganda va Ta'minotchi vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etishi bo'yicha Ta'minotchi talablari Iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

a.b) Ta'minotchi mansabdor shaxsi Iste'molchining suvni hisobga olish usuli, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalari va imbiyotlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini qayd etish, plomba va o'rnatish maqsadida ko'rdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sur'at qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va Ta'minotchi naryadlari bo'yicha toshiq ishlarini bajarish uchun kelganda Iste'molchi tomonidan maxsus ravishda kurtalmaganda;

a.v) Ta'minotchi tomonidan Iste'molchi ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalarida rejalashtirilgan usulda ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlarini o'tkazilganda, shuningdek yangi imbiyotlarni ulash ishlarini amalga oshirilganda;

a.g) Iste'molchi tasarrufida bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari yoki tarmoqlariga subabsonentlarning o'z bosibimchalik bilan ulanganini aniqlanganda;

a.d) Iste'molchi tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

a.ye) Iste'molchining tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlariga, qurilmalariga Ta'minotchidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomaga ega subabsonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

a.yo) Iste'molchi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqiriblayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda;

b) Ta'minotchi quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmagan suv uzatishni to'liq yoki qisman to'xtatishga haqli:

b.a) Ta'minotchining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b.b) tabiiy ofatlar ro'y berganda;

b.v) avariya holatlarida;

b.g) yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'psaytirishga zarurat tug'ilganda;

3.4. Ta'minotchining majburiyatlari:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

b) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarining texnik holatini mustazam ravishda nazorat qilib borish;

v) suv ta'minoti uzluksizligini ta'minlash (Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida suv berish belalaridan tashqari);

g) O'zbekiston Respublikasi Tabiiy muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar (PDS) talabi va ichimlik suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomalariga muvofiq oqova suvlarni tozalash ishlarini tashkil qilishni ta'minlash;

d) tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

ye) Iste'molchining kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlariga ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, imbiyotlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanilishini mustazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkil qilishda Iste'molchiga amaliy yordam ko'rsatish;

yo) Iste'molchidagi suvning behuda oqib ketishi va oqilona foydalanilmayotganlik holatlarini aniqlash, suv berish va undan foydalanishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish;

j) Iste'molchiga suvni hisobga olish individual asboblari o'rnatish, belgilangan tartib va muddatlarda ularni nazoratdan o'tkazib borish;

z) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, imbiyotlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat gijohnomasiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar haqida ichki ishlar organlari xodimlariga xabar qilish;

ii) shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarolmagan holatlarda iste'molchiga penya to'lash;

yi) iste'molchining shartnoma shartlariga ro'yi atmaganini masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

k) ichimlik suv va kanalizatsiya tizimida ro'y bergan buzilishlar aniqlangan kundan boshlab bir hafta mobaynida ularning sabablari, xususan ko'rsatibidagi to'xtatish muddatlari va cheklashlar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat sifatlarining o'zgarishi sabablari haqida iste'molchiga axborot berish;

l) ichimlik suv va kanalizatsiya tizimlarida ko'rsatibidagi ro'y berishi mumkin bo'lgan rejalik to'xtatish va uzilishlar haqida iste'molchini undashlar boshlanguncha 10 ish kundan ko'chikmay ogohlantirish;

m) ichimlik suvni ta'minot qilishga doir amaldagi va yangi joriy qilingan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar bilan iste'molchini aloqa vositalari (telefon, elektron pochta) orqali sabardor qilish;

n) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni (qiyoslash xizmatlari tarifatidagi o'zgarishlar haqida ular amalda joriy qilinishidan 13 kun avval xabar) axborot vositalari yoki boshqa aloqa vositalari (Ta'minotchining ijtimoiy tarmoqidagi sahifalari, rasmiy sayti) yordamida iste'molchiga sabardor qilish;

o) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarining holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni iste'molchiga bepul taqdim etish.

IV. Taraflarning javobgarligi

4.1. Ta'minotchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) iste'molchini me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarga hamda markuz shartnomaga muvofiq ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suvlarni chiqarish;

b) iste'molchiga me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar hamda qonunchilik asoslari va shartnomada ko'rsatilgan talablarga muvofiq (O'zRda 990/2011 davlat standartiga muvofiq) sifatli ichimlik suv yetkazish berish;

v) iste'molchiga ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimlariga ulanish uchun o'z vaqtida, qonuniy asoslangan texnik shartlarni taqdim etish;

g) suvni hisobga olish individual asboblarni o'z vaqtida davlat nazoratidan o'tkazish, belgilangan muddatlarda iste'molchidagi suvni hisobga olish asboblarning yechib olinishi, o'rnatilishi, ko'rsatkichlari nazorat qilinishi va tekshiruv o'tkazilishi haqida ogohlantirish;

d) iste'molchining mulkiga yetkazilgan moddiy zarar uchun qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda javob berish;

e) shartnoma shartlari va o'ziga yuklangan majburiyatlarini bajarilmaganlik.

4.1.1. Ta'minotchi iste'molchini suv bilan ta'minlashda quyidagi sabablarga ko'ra uzilishlar bo'lganligi uchun javob bermaydi:

a) Qoidalarining 129-bandida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra suv berish to'liq yoki qisman to'xtatanda;

b) iste'molchining aybiga ko'ra;

4.1.2. Ta'minotchi, agar suv ta'minoti bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining yengil bo'lmaydigan kuch yoki suv ta'minoti xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma shartlari iste'molchi tomonidan buzilganligi tufayli sodir bo'lganini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ehtolasa, u sifat buzilganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

4.1.3. Tozalash inshootlari, nasos stansiyalari quvvatining yoki kommunal suv quvurlarining suv o'tkazish quvvatining yetarli emasligi tufayli suv ta'minotida munozam ravishda uzilishlar bo'lgan taqdirda Ta'minotchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishgan holda, iste'molchini unga suv berilishi rejalari haqida sabardor qilib, alohida tumanlarga suv berilishi yuzasidan javob beradi. Shu bilan birga, Ta'minotchi iste'molchini suv bilan normal ta'minlashga to'siqlik qilayotgan sabablarni bartaraf etishga doir barcha zarur tadbirlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, shuningdek suvni hisobga olish asboblari mavjud bo'lmaganda - suvni berish soxtlariga munozam ravishda qayta hisob-kitob qilinishi yuzasidan javob beradi.

4.2. Iste'molchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) kanalizatsiya tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chirevchi qurilmalarning holati, saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatdagi uchun;

b) O'ziga qarshi sanitariya asboblari, kanalizatsiya tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambarang yo'qligi, reviziyalarining rich yopilmasligi, mosaz texnik holat tufayli iste'molchining kanalizatsiya tarmoqlarida yoki Ta'minotchida, ichimlik suv va kanalizatsiyaning tashqi tarmoqlarida avariya (tug'ilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababi yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zarar uchun.

v) Ta'minotchi bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish asbobi, aylama liniya rullari, yong'in rullari, gidrantlar va ushbu hududida yoki tashqirida bo'lgan hamma Ta'minotchi tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlanishi uchun.

g) Ta'minotchiga ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, mahsulotlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qo'monchilikda belgilangan tartibda.

4.3. Suvni hisobga olish asbobi va shvrt rullaridagi plombaning saqlanmaganligi va but emasligi aniqlangan taqdirda, so'nggi dalolatnoma tuzilgan sanadan o'tiboran, ammo eng ko'pi bilan uch oydan oshiq bo'lmagan davr uchun, to'lovlar Qoidalarining 17-bandining "b" kichik bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4. Plombalangan yong'in rullari va gidrantlaridagi plombalarni uzishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

a) Ta'minotchi bilan kelishilgandan so'ng suv ta'minotining yong'inga qarshi tizimi faoliyatini tekshirilganda va yong'in nasoslari ushundan o'tkazilganda.

b) Ta'minotchini xabardor qilmagan holda yong'in o'chirilganda va yong'in tarqalishi organlari tomonidan yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimining nasoslari o'tkazilganda.

4.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda iste'molchi 24 soat mobaynida Ta'minotchiga plomba uzilgani to'g'riroq dalolatnoma taqdim etishi va rullarini plombalash uchun Ta'minotchi vakilini chaqirishi shart.

4.6. Suv qavatiga o'zbohinchalik bilan ulangan, sovuq suvni hisobga olish asboblarining buzilishiga ataylab yo'l qo'yan, shuningdek ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida hisobga olish asboblariga tashqiridan aralashgan iste'molchilar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Iste'molchi Ta'minotchiga, ichimlik va og'ova suv xizmatlari uchun to'lovlarni keyingi oy uchun, agar hisobida yetarli miqdorda oldirdan to'lovi mavjud bo'lmasa, yan uyning 10 sanasiga qadar 70 foizlik oldirdan huj to'lash tartibida amalga oshirishi lozim.

5.2. Iste'molchi shartnomada belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda to'lovlarning kechiktirilgan har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.3. Ta'minotchi shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar (bajarilmagan ishlar) bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

5.4. Iste'molchi ichimlik va og'ova suv xizmatlari uchun to'lovlarni shartnomada belgilangan shartlar asosida va tartibda o'z vaqtida to'lamasa, Ta'minotchi Iste'molchini yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab 5 ish kuni o'tgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iste'molchini ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.

Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan ilgari uzib qo'yilgan (o'zbohinchalik bilan ulanish, qarzdorlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) Iste'molchini qayta ulashda Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdoringing 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa qayta ulanadi.

5.5. Og'ova tizimiga kelib tushuvchi og'ova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, Iste'mol qiluvchi ichimlik suv miqdoriga og'ova suv tarmoqlari nisobi uchun 2,0 koeffitsiyentgacha qo'llaniladi.

5.6. Obyekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimiga va (yoki) markaziy og'ova tizimidan boshqa og'ova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda Ta'minotchi tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv obyektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kommunal kanalizatsiya tizimiga eqovalarni eqizish hajmi o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish qur'vati yoki o'rnatilgan va to'ysandan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

Iste'molchiga qarabli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

VI. Axbolda shartlar

6.1. Obyekt egasi o'zgarishida iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarni to'lab, bu haqda Ta'minotchi bilan dalolatnoma imzolashi shart. Iste'molchi chiqib ketgach, suvni hisobga olish asbobi plombaqlarining holati va soqplanmagan debitor qarzdorlik uchun jayobgarlik obyektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Quyidagi holatlarda sarflangan ichimlik suv miqdori Qoidalarining 87-bandining "b" kichik bandiga muvofiq hisoblanadi:

- a) agar iste'molchi suvni hisobga olish asbobi bilan ta'minlanmagan bo'lsa,
- b) suv o'lchash asbobi yoki moslamasi Ta'minotchida ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa,
- v) ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari hamda qurilmalariga o'zbohinchalik bilan ulanib olinganda (o'zbohinchalik bilan ulanish asoslangunga qadar) o'zgi tekshurish dalolatnomasi tuzilgan kundan, shuningdek, agar o'zbohinchalik bilan ulanish Ta'minotchiga tegishli tarmoq va qurilmalarga nisbatan bo'lgan bo'lsa, o'zbohinchalik bilan ulanish kundan boshlab u asoslangunga qadar, barcha uch oylik muddatdan ko'p bo'lmagan holda;
- g) suvni hisobga olish asbobi iste'molchi asbi bilan nisbatan chiqqan (suvni hisobga olish asbobi sifatida suv bilan birga oqib keluvchi qum, tosh va loyqa yig'ilib natijavida oshidan chiqqanligi haqida tegishli xulosa mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno), xirari, buzilgan va bu haqda Ta'minotchi xabardor qilmagan taqdirda (bunda sarflangan suv miqdori, o'zgi tuzilgan dalolatnoma sanasidan to yangi suvni hisobga olish asbobining o'rnatilish sanasigacha, ammo uch oydan oshiq bo'lmagan muddat uchun hisoblanadi);
- d) suvni hisobga olish asbobi iste'molchiga Ta'minotchi tomonidan ogohlantirish xati yuborgandan so'ng belgilangan muddatda davriy qiyoslovdan o'tkazilmaganda.

6.3. Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybivi bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rtacha sarf bo'yicha aniqlanadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obyekt) loyihalashtirish va qurilish boshlash uchun loyha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan yoki muddati o'tgan holda Ta'minotchi tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. Iste'molchi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda Ta'minotchi tomonidan sokin qarori, kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar Ta'minotchi tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida amalga oshiriladi. Bu to'lovlar Iste'molchi tomonidan 3 ish kuni ichida akseptsiy tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda Ta'minotchi kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0.4 foiz penya hisoblaydi, ammo uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50 foizidan oshmasligi lozim.

6.7. Shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi kommunal kanalizatsiya tarmigiga jala suvlari ruxsat etilmagan holda oqirilgan taqdirda iste'molchiga nisbatan ishlab chiqarish oqova suvlarini oqurganligi uchun amaldagi tariflarga nisbatan qo'shimcha uch barobarlik ko'rsatkichini tatbiq etiladi. Hisob-kitob tashkilotining maydoni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalarini hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblash tartibiga muvofiq kadastr va meteorologik ma'lumotlarga binoan amalga oshiriladi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha ixtiyorlar bilan belgilangan oqirishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdoridan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qarori bilan tasdiqlangan normativlarga muvofiq) ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqiqlanadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblab yozish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevraldagi 11-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida Iste'molchi yoziladigan e'tiroznomani to'lov hujjati olingandan keyin 3 kun muddatida Ta'minotchiga u joylashgan manzilga borgan holda yoki Ta'minotchining telefon raqami, elektron pochta yubad pochta xizmati orqali taqdim etishi kerak. E'tiroznoma Iste'molchini to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan o'z qilmaydi.

E'tiroznomani Ta'minotchi tomonidan 10 kun muddatda ko'rib chiqiladi. Ular aslida deb topilgan, ko'lingan ortiqcha summa keyingi to'lov hisabga o'tkaziladi. Iste'molchi e'tiroznomani ko'rib chiqilganligi to'g'risidagi ma'lumotdan, u taqdim etgan telefon raqami (shu jumladan markaz telefon raqamining telegraf ijtimoiy tarmoq'dagi profili) yoki pochta xizmati orqali, o'tiruv ko'rib chiqilishi kuzim bo'lgan muddat tugagandan keyin 3 kun muddatda sabablar qilmishi kuzim.

Agar ko'rsatilgan muddat ichida iste'molchi sabablar qilmaysa, masala iste'molchi tomonidan hal qilingan hisoblanadi.

VII. Shartnomani hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida ushbu shartnomaga shartlarning bajarilishi va shartnomaga sod boshqa holatlar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar tarafdorlarning o'zaro kelishuvi orqali hal qilinadi. Taraflar tomonidan nizolar bo'yicha o'zaro kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Iste'molchi joylashgan manzildagi tegishli mas'ul orqali hal qilinadi.

VIII. Fors - major

8.1. Agar ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiat hodisalar va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilsik, yomg'ir, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarilmavlik uchun javobgarlikdan vozdayiladilar.

Mazkur shartnomaga bo'yicha majburiyatlarini bajarishi muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tizim 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major holati boshlangan muddatlarini ko'rsatgan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqlari profili va rasmiy sahifalar) orqali ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatlari shartnomaga shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'liqsizlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish haqqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnomaga ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2. Shartnomaga imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va " " 20 yilgacha amal qiladi.

9.3. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tasmiylashtirilishi va taraflar tomonidan imzolanishi shart.

X. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

- TA'MINOTCHI -

Manzil: G'azalkent shahri, Bo'ston ko'chasi 2a

TEL: 770-74-21803, faks: 74-28527

Bank: ATIB Ipsterka bank Chirchik filiali

Bank kodi: 00478 STIR: 203732506

XHTUT: 36000

H/r: 23836000204142939447

Qabul qilinayotgan va xizmatdan o'tirish kodi

QQS: 22793001444

E-mail: chirchik@atib.uz

Direktor: S.A. Mirdjamalov

M.O. (F.I.O. imzo)

202



- ISTE'MOLCHI -

Manzil:

Tel: 100 000 000 000 000 000 000

Bank: 100 000 000 000 000 000 000

Bank kodi: PC STIR

XHTUT:

Shaxsiy raqam: 100 000 000 000 000 000 000

Shaxsiy kod: 100 000 000 000 000 000 000


Bank: 100 000 000 000 000 000 000

Bank kodi: 100 000 000 000 000 000 000

Rahbar: 100 000 000 000 000 000 000

M.O. (F.I.O. imzo)

202



Yuridik xulosa:

Ushbu shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan.

Yuridik konsult:

[Handwritten signature]

202